

“MEHRIBONLIK” KONSEPTINING O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARDAGI IFODASI

Sitora Toshmamatova

O‘qitish metodikasi o‘qituvchisi, FDU

Zulfizar Qochqorova

O‘qitish metodikasi o‘qituvchisi, FDU

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada “Mehribonlik” konseptiga oid iboralar va leksik birliklarning ingliz va o‘zbek tillaridagi ifodasi va qo‘llanilish masalalari atroflicha bayon etildi. Shuningdek, o‘rganilayotgan tillardagi “Mehribonlik” konseptiga doir paremiyalarni tarjima va ekvivalent muammolariga ham qaratildi.

Kalit so‘zlar: paremiya, ibora, leksik birlik, konsept, mehribonlik, tasnif.

АННОТАЦИЯ

В данной статье подробно раскрыты выражения и лексические единицы, относящиеся к понятию «Доброта» в английском и узбекском языках и вопросы их употребления. Также внимание было сосредоточено на переводе и эквивалентных проблемах паремий, связанных с концептом «Доброта» в изучаемых языках.

Ключевые слова: паремия, словосочетание, лексическая единица, понятие, доброта, классификация.

ABSTRACT

In this article, the expressions and lexical units related to the concept of “Kindness” in English and Uzbek languages and the issues of their use were described in detail. It was also focused on translation and equivalent problems of paremies related to the concept of “Kindness” in the studied languages.

Keywords: paremia, phrase, lexical unit, concept, kindness, classification.

Bugungi kunda zamonaviy tilshunoslik sohasida keng tarzda tadqiq etilayotgan mavzularidan biri bu konsept va uni talqin etish masalasi hisoblanadi. Konsept atamasi kognitiv tilshunoslik sohasining eng muhim kategoriyalaridan biri sanaladi. kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya sohalarini umumlashtirib beruvchi asosiy kategoriya bu konsept dir. Ushbu atamaning kelib chiqishiga nazar tashlasak, 1928-yilda rus tilshunos olimi Askoldov o‘zining tadqiqot ishlarida ushbu atama haqida ta’kidlab o‘tgan. Tilshunos olim konsept haqida “bu bir

tur yoki boshqa turdagi tushunchalar haqida fikrlash jarayonini o'zida aks ettiradigan birlikdir” 1 degan fikrni aytib o'tgan.

Biz bugun tadqiq etayotgan “mehribonlik” konsepti va unga doir leksik, frazeologik va paremiologik birliklar tarjimashunoslik doirasida biroz qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Konseptlarni o'rganuvchi tilshunos olimlarning fikricha, “mehribonlik” konsepti bilan bog'liq sintagmatik munosabatlarini tahlil qilish natijasida eng ko'p uchraydigan quyidagi birikmalar aniqlangan:

1. Subyektning holatini ifodalovchi birikmalar: kimgadir mehribon bo'lmoq, o'zini yaxshi his qilmoq.

2. Mehribonlikning idrokini subyektga ko'ra tavsiflovchi birikmalar. Ushbu holatda biror shaxsning boshqa bir subyektga nisbatan harakati ifodalanadi: mehribonlik ko'rsatish, mehribonlik bildirish, mehrga javob berish, birovning mehrini suiiste'mol qilish, mehrni tarqatish, mehrni qadrlash.

3. Ingliz tilidagi “Mehr” ni ifodalovchi “kind” konseptining -ly qo'shimchasi yordamida “jismaniy” harakatni bildiruvchi ibora hosil qilishi: to press hand kindly, to put hand kindly on one's shoulder.

4. “Mehribonlik”ni ifodalovchi “Kind” konseptining -ly qo'shimchasi orqali so'zlashuvchi fe'llar bilan so'z birikmalari hosil qilishi: to speak kindly, to pronounce kindly, to cry out kindly.

Ingliz tilida “Kind” konseptining frazeologik ifodasi orqali yetkazilgan ma'nolari o'zining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Insondagi mehribonlikni ifodalovchi sifatlar bir qancha asosiy belgilari aniqlangan. Jumladan, bu kabi belgilar insonga xos xarakterlarning xususiyatini ifodalashi ham mumkin: kind soul (mehribon yurak). Shuningdek, ingliz tilida yana bir mashhur “Hertfordshire kindness, Gloucestershire kindness” iboralari keng tarqalgan bo'lib, Hertfordshire kindness iborasi olingan bir yaxshilik evaziga berilgan, bir ijobiy imo-ishorani boshqasi bilan qaytarish ma'nosini ifodalash ma'nosida, Gloucestershire kindness iborasi esa keraksiz narsadan xalos bo'lish uchun donor tomonidan taqdim etilgan foydasiz sovg'ani ifodalashda qo'llaniladi.

Insonlar o'rtasidagi iliq munosabatlar mehr-muhabbatni ifodalovchi frazeologik birliklar ham ingliz tilida ko'p uchraydi:

-Kind hearts are more than coronets-Mehr-gul, qahr tikan;

-There's no such thing as a small act of kindness- Kichkina yaxshilik kabi narsa yo'q;

-Choose being kind over being right and you'll be right every time- To'g'ri bo'lishdan

ko'ra mehribon bo'lishni tanlang va har safar haq bo'lasiz;

-A forced kindness deserves no thanks- Majburiy mehribonlik minnatdorchilikka loyiq emas;

-Kind words are worth much and they cost little- Yaxshi so'zlar qimmatga tushadi va arzimlas.

O'zbek tilida ham “mehribonlik” konseptini ifodalovchi frazeologik, paremiologik va leksik birliklar mavjud. Chunonchi, M. Burqutbayevaning “Mehr ko'rsatish” aksiologik konsepti tadqiqi” nomli maqolasida mehribonlik konsepti yaxshilik konsepti bilan chabarchas bog'liq deb e'tirof etilgan. Bu konsept o'z o'rnida mehr ko'rsatish, g'amxo'rlik qilish, ko'mak berish kabi aksiologemalarga bo'lib o'rganildi. Mehr - oltindan qimmat; Do'stingga qo'shiq ayt, Mehringni qo'shib ayt; Izzatga arzimagan mehmon to'shak bulg'ar; Ko'z ko'zga tushsa, mehr qo'zg'alar; Mehr bilmas qarindoshdan, mehr bilgan yot yaxshi kabi maqollar mehr ko'rsatish aksiologemasiga birlashadi. Ularda mehr inson hayotida qanchalik muhim ekanligi aks ettirilgan. Mehr bilmas qarindoshdan, mehr bilgan yot yaxshi maqolida qarindosh va yot so'zlari bir-biriga zid ma'noli sozlar bo'lib kelgan. Mehr konsepti barcha xalqlarda o'z aksini topgan leksemdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, insonlarga xos bo'lgan ezgu fazilatlar orasida “mehribonlik” xususiyati ajralib turadi. Bu nafaqat ingliz xalqida so'zlashuvchi xalqlarning tili va madaniyatini, balki o'zbek xalqining ham madaniyatini ko'rsatib beradi. “Mehribonlik” konseptini ifodalovchi birliklar insonlarning bir-biriga bo'lgan mehr-oqibatini va ezgu xislatlarini yanada oshishiga salmoqli hissa qo'shadi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Аскольдов С.А. Концепт и слово// Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология-М:Academia. 1997.-С.267-280
2. Axmadaliyeva Gulmira. (2022). “QO'RQUV” KONSEPTI VA UNING O'RGANILISHI. Involta Scientific Journal, 1(13), 46–48. Retrieved from <https://involta.uz/index.php/iv/article/view/374>
3. Burqutbayeva M / “Mehr ko'rsatish” aksiologik konsepti tadqiqi/, International scientific online conferences